



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **BIRINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA TURKISTON O'LKASIDA QOCHOQLARNI JOYLASHTIRISH: HUDUDIY TAQSIMOT VA MA'MURIY YONDASHUVLAR**

**Tojiboyev Jaxongir Ilxomovich**

Namangan davlat universiteti, doktorant (PhD)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Birinchi jahon urushi yillarida Rossiya imperiyasining g'arbiy front hududlaridan Turkiston o'lkasiga majburiy ko'chirilgan qochoqlar masalasi yoritiladi. Tadqiqotda 1915-yil 15-noyabr holatiga oid statistik ma'lumotlar asosida Kaspiyorti, Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida qochoqlarni joylashtirish jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada qochoqlar sonining hududlar bo'yicha notekis taqsimlangani, yirik ma'muriy va transport markazlarining asosiy qabul hududlariga aylangani ko'rsatib beriladi. Shuningdek, Buxoro amirligi hududida qochoqlar uchun maxsus yashash joylari tashkil etilgani ham alohida qayd etiladi. Tadqiqot natijalari Turkiston o'lkasida qochoqlar muammosi epizodik hodisa emas, balki urush davri migratsion jarayonlarining keng ko'lamli va tizimli ko'rinishi bo'lganini asoslaydi.

**Kalit so'zlar:** Birinchi jahon urushi, Turkiston o'lkasi, qochoqlar, majburiy migratsiya, Kaspiyorti viloyati, Sirdaryo viloyati, Farg'ona viloyati, Samarqand viloyati, Buxoro amirligi, joylashtirish siyosati.

## **РАЗМЕЩЕНИЕ БЕЖЕНЦЕВ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ: ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЕ И АДМИНИСТРАТИВНЫЕ ПОДХОДЫ**

**Тожибоев Жахонгир Илхомович**

Наманганский государственный университет, докторант (PhD)

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается проблема беженцев, вынужденно переселённых в Туркестанский край из западных прифронтовых территорий Российской империи в годы Первой мировой войны. На основе статистических данных по состоянию на 15 ноября 1915 года анализируется процесс размещения беженцев в Закаспийской, Сырдарьинской, Ферганской и Самаркандской областях. Особое внимание уделяется неравномерному распределению беженцев по уездам, а также роли крупных административных, транспортных и экономических центров в их приёме и размещении. В статье также освещается размещение беженцев на территории Бухарского эмирата, в частности в Чарджуе и Новой Бухаре. Полученные данные позволяют сделать вывод о том, что проблема беженцев в Туркестане являлась не случайным эпизодом, а масштабным и системным социально-миграционным явлением военного времени.

**Ключевые слова:** Первая мировая война, Туркестанский край, беженцы, вынужденная миграция, Закаспийская область, Сырдарьинская область, Ферганская область, Самаркандская область, Бухарский эмират, политика размещения.

## **THE SETTLEMENT OF REFUGEES IN TURKESTAN DURING THE FIRST WORLD WAR: TERRITORIAL DISTRIBUTION AND ADMINISTRATIVE APPROACHES**

**Tojiboyev Jaxongir Ilxomovich**

Namangan State University, Doctoral student (PhD)

### **Abstract**

This article examines the issue of refugees forcibly displaced to Turkestan from the western frontline regions of the Russian Empire during the First World War. Drawing on statistical data as of November 15, 1915, the study analyzes the settlement of refugees in the Transcaspien, Syrdarya, Fergana, and Samarkand regions. The article highlights the uneven territorial distribution of refugees and demonstrates that major administrative, transport, and economic centers became the principal areas of reception and accommodation. It also discusses the arrival and placement of refugees in the Emirate of Bukhara, particularly in Charjui and New Bukhara. The findings show that the refugee question in Turkestan was not an isolated or temporary phenomenon, but rather a large-scale and systematic manifestation of wartime migration. The study contributes to a broader understanding of the demographic,

social, and administrative consequences of the First World War in Central Asia.

**Keywords:** First World War, Turkestan region, refugees, forced migration, Transcaspian region, Syrdarya region, Fergana region, Samarkand region, Emirate of Bukhara, settlement policy.

Birinchi jahon urushi nafaqat harbiy-siyosiy jarayonlar, balki keng ko‘lamli demografik siljishlar, majburiy ko‘chirishlar va ijtimoiy inqirozlar bilan ham tarixda chuqur iz qoldirdi. Urush yillarida Rossiya imperiyasining g‘arbiy chegaralarida yuzaga kelgan harbiy harakatlar millionlab tinch aholining o‘z yashash joylarini tark etishiga sabab bo‘ldi. Natijada Polsha, Litva, Belorussiya, Ukraina, Latviya kabi hududlardan ko‘chirilgan aholi imperiyaning ichki guberniyalari, Volgabo‘yi, Sibir, Uzoq Sharq va Markaziy Osiyo mintaqalariga yo‘naltirildi. Ushbu jarayon Rossiya imperiyasi tarixida eng yirik majburiy migratsiya hodisalaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Mazkur migratsion oqim Turkiston o‘lkasiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Urush frontidan uzoqda joylashgan, nisbatan barqaror ichki hudud hisoblangan Turkiston general-gubernatorligi Rossiya imperiyasi uchun qochoqlarni vaqtincha joylashtirish, ularni nazorat qilish va mehnat resursi sifatida jalb etish mumkin bo‘lgan muhim mintaqalardan biriga aylandi. Ayniqsa, temiryo‘l tarmoqlari, yirik ma‘muriy markazlar, shahar infratuzilmasi va mahalliy boshqaruv imkoniyatlari qochoqlarni qabul qilish jarayonida muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

1915-yilga kelib Turkiston o‘lkasining Kaspiyorti, Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida qochoqlar soni sezilarli darajada ortdi. Ularning viloyatlar va uyezdlar bo‘yicha joylashtirilishi bir xil kechmadi: ayrim hududlar, xususan, Toshkent, Ashxobod, Marv, Skobelev, Samarqand kabi ma‘muriy va transport jihatdan muhim markazlar asosiy qabul punktlariga aylandi. Boshqa tomondan, ayrim uyezdlarda qochoqlar sonining kamligi yoki statistik ma‘lumotlarning to‘liq emasligi urush davri hisob yuritish tizimidagi muammolarni ham ko‘rsatadi. Bu holat qochoqlarni joylashtirish siyosati qat‘iy markazlashgan reja asosida emas, balki hududlarning mavjud imkoniyatlari, infratuzilmaviy salohiyati va ma‘muriy vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilganini anglatadi.

Turkistonda qochoqlar masalasining o‘rganilishi Birinchi jahon urushi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni chuqurroq anglash uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki qochoqlar oqimi mahalliy boshqaruv tizimi, oziq-ovqat ta‘minoti, uy-joy masalasi, tibbiy-sanitariya holati, mehnat bozori va xayriya tashkilotlari faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Shu sababli mazkur masala faqat demografik yoki statistik hodisa sifatida emas, balki urush davri Turkiston jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘muriy hayotiga ta‘sir ko‘rsatgan murakkab tarixiy jarayon sifatida tadqiq etilishi lozim.

Ushbu maqolaning maqsadi Birinchi jahon urushi yillarida Turkiston o‘lkasiga yo‘naltirilgan qochoqlar oqimining miqyosi, hududiy taqsimoti va joylashtirish xususiyatlarini tarixiy-statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda 1915-yil 15-noyabr holatiga oid arxiv ma‘lumotlari, viloyatlar kesimidagi statistik ko‘rsatkichlar hamda mavjud ilmiy adabiyotlar asosida Kaspiyorti, Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand viloyatlari va Buxoro amirligi hududida qochoqlarni joylashtirish jarayoni yoritiladi. Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik tahlil va hududiy yondashuv usullaridan foydalanilgan holda Turkiston o‘lkasida qochoqlar muammosining keng ko‘lamli va tizimli ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati ochib beriladi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Birinchi jahon urushi yillarida Rossiya imperiyasida yuzaga kelgan qochoqlar muammosi tarixshunoslikda alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Tadqiqotchilar ushbu jarayonni nafaqat harbiy-siyosiy inqiroz oqibati, balki imperiya ichidagi keng ko‘lamli ijtimoiy-demografik siljish, majburiy migratsiya va davlat boshqaruvi tizimi uchun jiddiy sinov sifatida baholaydilar.

Mazkur masalani o‘rganishda I.B. Belovning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Muallif Birinchi jahon urushi yillarida Rossiya imperiyasidagi majburiy migrantlar, jumladan, qochoqlar va harbiy asirlar masalasini umumimperiya miqyosida tahlil qilib, ularning soni, tarkibi, joylashtirilishi va ijtimoiy holatiga e‘tibor qaratadi [4]. Belovning yondashuvi qochoqlar masalasini faqat front hududlaridagi evakuatsiya jarayoni sifatida emas, balki ichki hududlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta‘sir ko‘rsatgan murakkab tarixiy hodisa sifatida tushunish imkonini beradi.

P. Gattrellning ilmiy ishlari Rossiya imperiyasidagi qochoqlar inqirozini xalqaro tarixshunoslik kontekstida yoritishi bilan ajralib turadi. Uning “A Whole Empire Walking: Refugees in Russia during World War I” nomli asarida urush davridagi qochoqlar harakati butun imperiyani qamrab olgan demografik va gumanitar inqiroz sifatida baholanadi [6]. Shuningdek, muallifning “War, Refugeedom, Revolution: Understanding Russia’s Refugee Crisis, 1914–1918” maqolasida qochoqlar muammosi urush, inqilob va

davlat institutlarining zaiflashuvi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi [5]. Ushbu yondashuv Turkiston o‘lkasiga yo‘naltirilgan qochoqlar oqimini Rossiya imperiyasidagi umumiy migratsion jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida baholash uchun nazariy asos yaratadi.

A.M. Tixonova va S. Kuznetsova tadqiqotlarida ham qochoqlarning og‘ir ijtimoiy ahvoli, ekspluatatsiya qilinishi, mehnatga jalb etilishi hamda davlat va jamoat tashkilotlari yordamiga muhtojligi masalalari yoritilgan [7; 11].

M. Stockdale tadqiqotlarida Birinchi jahon urushi davrida Rossiya jamiyatida vatanparvarlik, safarbarlik va fuqarolik masalalari tahlil qilinadi [10]. Ushbu yondashuv qochoqlar masalasini faqat gumanitar muammo sifatida emas, balki imperiya siyosiy va ijtimoiy safarbarlik tizimi bilan bog‘liq jarayon sifatida ham ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarning aksariyatida qochoqlar muammosi Rossiya imperiyasi yoki uning ayrim markaziy guberniyalari misolida o‘rganilgan. Turkiston o‘lkasiga yo‘naltirilgan qochoqlar oqimi, ularning viloyatlar va uyezdlar bo‘yicha taqsimoti, mahalliy ma‘muriy boshqaruv tizimi va hududiy joylashtirish xususiyatlari esa yetarlicha maxsus tadqiq etilmagan. Shu jihatdan ushbu maqola O‘zbekiston Milliy arxivi hujjatlari va 1915-yil 15-noyabr holatiga oid statistik ma‘lumotlar asosida Turkiston o‘lkasida qochoqlarni joylashtirish jarayonini alohida tahlil qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir [1; 2; 3; 4; 5; 6].

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Birinchi jahon urushi (1914–1918) Rossiya imperiyasiga nihoyatda og‘ir talafot yetkazdi va mamlakat ichkarisida majburan ko‘chirilgan aholining juda katta soni ushbu urushning eng keskin oqibatlaridan biri bo‘ldi. 1914-yildan boshlab urush harakatlari olib borilayotgan hududlardan qochoqlar Rossiya imperiyasining turli o‘lkalariga kela boshladi. 1914–1917-yillar davomida harbiy hokimiyatlarning buyrug‘i va bosimi ostida 5 millionga yaqin kishi o‘z vatani va tug‘ilgan joylarini tark etishga hamda Markaziy Rossiya, Volgabo‘yi, Sibir, Uzoq Sharq va Markaziy Osiyoning ichki guberniyalariga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘ldi. Ular asosan g‘arbiy frontdagi harbiy harakatlar hududlaridan, ya‘ni bugungi kunda Rossiya bilan chegaradosh bo‘lgan Polsha, Litva, Belorussiya, Ukraina va Latviya hududlaridan chiqib ketgan edilar [14]. Xususan, Turkiston general-gubernatorligi viloyatlariga ham qochoqlar oqimi yo‘nala boshladi va 1915-yilning oxirlariga kelib qochoqlar soni salmoqli ko‘rinishga ega bo‘ldi.

#### **Kaspiyorti viloyatidagi qochoqlar soni (1915-yil 15-noyabr holatiga) [5]**

<b>№</b>	<b>Uyezdlar</b>	<b>Hududning hozirgi nomi</b>	<b>Qochoqlar soni</b>
1	Ashxobod	Ashxobod	6033 nafar
2	Krasnovodsk	Turkmanboshi	1258 nafar
3	Marv	Mari	6687 nafar
4	Tajan	Tajan	520 nafar
5	Mang‘ishloq	Mang‘ishloq	–
	Jami		14498 nafar

Jadval ma‘lumotlari 1915-yil oxirlariga kelib Kaspiyorti viloyatlarida qochoqlarni joylashtirish jarayoni hududiy jihatdan ancha keng qamrovli va notekis taqsimlanganini ko‘rsatadi. Xususan, viloyat tarkibidagi to‘rtta uyezdga jami 14,5 ming nafarga yaqin qochoq istiqomat qilgani Kaspiyorti mintaqasi urush davrida muhim qabul hududlaridan biri sifatida shakllanganini anglatadi. Bu holat hududning geografik joylashuvi, temiryo‘l va port infratuzilmasiga yaqinligi hamda ma‘muriy boshqaruv imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Qochoqlarning eng katta qismi Marv va Ashxobod uyezdlariga joylashtirilgani ushbu uyezdlarning joylashtirish salohiyati nisbatan yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Marv uyezdining Yolotan aholi punktida 756 nafar, Ashxobod uyezdining Kaaxka aholi yashash joyida esa 500 nafar qochoqning mavjudligi qochoqlar faqat markaziy shaharlar bilangina cheklanmay, balki yirik bo‘lmagan, ammo logistika va yashash imkoniyatlariga ega punktlarga ham joylashtirilganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Krasnovodsk uyezdining Qizilarvat shahrida 801 nafar qochoqning boshpana topgani ushbu hududning transport va sanoat ahamiyati yuqori bo‘lgan shahar sifatida qochoqlar oqimini qabul qilishda muhim rol o‘ynaganini anglatadi. Bu holat qochoqlarni joylashtirish siyosatida iqtisodiy infratuzilma va ish bilan ta‘minlash imkoniyatlari muhim omil bo‘lganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Keltirilgan ko‘rsatkichlar Kaspiyorti viloyatlarida qochoqlarni joylashtirish jarayoni markazlashgan reja asosida emas, balki hududlarning real imkoniyatlari va vazifaviy ahamiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Bu esa urush davri migratsion siyosatining moslashuvchan,

ammo hududlar o'rtasida yuklama jihatidan nomutanosib xarakterga ega bo'lganini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

**Sirdaryo viloyatidagi qochoqlar soni (1915-yil 15-noyabr holatiga) [5]**

№	Uyezdlar	Hududning hozirgi nomi	Qochoqlar soni
1	Toshkent	Toshkent	16584 nafar
2	Chimkent	Chimkent	2883 nafar
3	Avliyo-ota	Taroz	2038 nafar
4	Perovsk	Qizilo'rda	585 nafar
5	Kazalinsk	Qazali	588 nafar
	Jami		22678 nafar

Jadval ma'lumotlari Sirdaryo viloyatida qochoqlarni joylashtirish jarayoni aniq markazlashuv tendensiyasiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Xususan, viloyatdagi eng katta qochoqlar to'plami Toshkent uyezdida jamlangani ushbu hududning ma'muriy, iqtisodiy va infratuzilmaviy salohiyati boshqa uyezdlarga nisbatan ustun bo'lganini anglatadi. Birgina Toshkent shahrida 14 ming nafardan ortiq qochoqning istiqomat qilgani shahar urush davrida asosiy qabul va taqsimot markazi vazifasini bajarganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Chimkent uyezdining Chernyayev shahrida qariyb 3 ming nafar qochoqning joylashtirilgani ushbu punkt Sirdaryo viloyatida qochoqlar soni bo'yicha ikkinchi o'rinda turganini ko'rsatadi. Bu holat Chernyayev shahrining transport yo'llariga yaqinligi, iqtisodiy faolligi hamda ish bilan ta'minlash imkoniyatlari mavjudligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Toshkent va Chernyayev shaharlari o'rtasidagi keskin son tafovuti qochoqlarni joylashtirish siyosatida hududlar o'rtasida yuklama nomutanosibligi mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Mazkur ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyatida qochoqlarni joylashtirish jarayoni yirik shahar markazlariga yo'naltirilgan holda olib borilganini hamda ma'muriy boshqaruv va infratuzilma darajasi yuqori bo'lgan hududlar asosiy migratsion oqimni o'z zimmasiga olganini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

**Farg'ona viloyatidagi qochoqlar soni (1915-yil 15-noyabr holatiga) [6]**

№	Uyezdlar	Hududning hozirgi nomi	Qochoqlar soni
1	Qo'qon	Qo'qon	2163 nafar
2	Skobelev	Farg'ona	9767 nafar
3	Namangan	Namangan	2900 nafar
4	Andijon	Andijon	4425 nafar
5	O'sh	O'sh	1440 nafar
	Jami		20695 nafar

Mazkur ma'lumotlar Farg'ona viloyatida qochoqlarni joylashtirish jarayoni hududiy notekislik va markazlashuv tendensiyalari asosida amalga oshirilganini ko'rsatadi. Xususan, qochoqlarning eng katta ulushi Skobelev uyezdiga to'g'ri kelgani ushbu hududning infratuzilmaviy imkoniyatlari, transport yo'llariga yaqinligi hamda ma'muriy boshqaruv salohiyati boshqa uyezdlarga nisbatan ustun bo'lganini anglatadi. Viloyatdagi harbiy asirlarning deyarli yarmi — taxminan 10 ming nafari — aynan shu uyezdga joylashtirilgani Skobelev uyezdining strategik va tashkiliy markaz sifatidagi rolini yanada kuchaytiradi. Andijon, Namangan va Qo'qon uyezdleri qochoqlarning umumiy soni bo'yicha keyingi o'rinlarni egallagan qochoqlarni joylashtirishda bosqichma-bosqich taqsimlash siyosati amal qilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Andijon uyezdidagi Jalolobod va Bozorqo'rg'on aholi punktlarida mos ravishda 807 va 258 nafar qochoqning panohtopgani qochoqlar faqat yirik shahar markazlarida emas, balki qisman kichik aholi yashash punktlariga ham joylashtirilganini ko'rsatadi. Bu esa mahalliy iqtisodiy va ijtimoiy resurslardan kengroq foydalanishga bo'lgan intilish bilan izohlanadi. Mazkur holatlar Farg'ona viloyatida qochoqlarni joylashtirish siyosati geografik, demografik va ma'muriy omillar uyg'unligi asosida shakllanganini hamda ayrim uyezdlarning yuklama darajasi boshqalarga nisbatan ancha yuqori bo'lganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

**Samarqand viloyatidagi qochoqlar soni (1915-yil 15-noyabr holatiga) [6]**

№	Uyezdlar	Hududning hozirgi nomi	Qochoqlar soni
1	Samarqand	Samarqand	8400 nafar
2	Kattaqo'rg'on	Kattaqo'rg'on	2849 nafar
3	Jizzax	Jizzax	—
4	Xo'jand	Xo'jand	—
	Jami		11249 nafar

1915-yil 15-noyabrgacha Samarqand viloyatining Samarqand va Kattaqo'rg'on uyezdlarida 11 ming nafardan ortiq qochoq qayd etilgani ushbu hududlarning qochoqlarni qabul qilishda asosiy markazlardan biri bo'lganini anglatadi. Shu bilan birga, Jizzax va Xo'jand uyezdlarida istiqomat qilgan qochoqlar to'g'risida ma'lumotlarning keltirilmaganligi statistik hisob yuritishda hududiy tafovutlar, hujjatlashtirishdagi uzilishlar yoki ikkilamchi ahamiyat berilgan mintaqalar mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Bu holat urush davri ma'muriy hisob tizimining to'liq va izchil ishlamaganini ilmiy jihatdan taxmin qilish imkonini beradi. Shuningdek, Buxoro amirligi hududiga ham qochoqlar olib kelinib, joylashtirilgan. Bu paytda amirlikda 792 nafar qochoq borligi rasmiy hujjatlarda o'z aksini topgan [6]. Qochoqlar uchun maxsus yashash joyi tashkillashtirilgandan so'ng Buxoro amirligiga qarashli Chorjo'yga qochoqlar oqimi ko'paya boshladi. 1915-yil boshida u yerda 560 nafar katta yoshli va 156 nafar kichik yoshli qochoq bo'lganligi qayd etilgan [1]. Buxorodagi imperator siyosiy agentligining ma'lumotlariga ko'ra, Yangi Buxoro (Kogon) va Chorjo'yda 800 nafar atrofida qochoq joylashtirilgan [2]. 1915-yilning oxirlariga kelib Chorjo'y va Yangi Buxorodagi qochoqlar lagerlariga yana 200 nafardan qochoq kelib qo'shilgan. Ularning oltidan bir qismini bolalar tashkil etgan [3; 4].

**XULOSA.** Yuqoridagi jadvallar ketma-ket tahlili 1915-yil 15-noyabr holatiga ko'ra Turkiston o'lkasida qochoqlar soni 70 ming nafarga yaqinlashganini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich urush davri migratsiya jarayonlarining miqyosi nihoyatda keng bo'lganini hamda Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi doirasida asosiy qabul va joylashtirish hududlaridan biriga aylanganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Qochoqlar sonining qisqa vaqt ichida bunday darajada ortishi, bir tomondan, front hududlaridagi harbiy harakatlar va majburiy ko'chish jarayonlarining jadalligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, Turkiston o'lkasining geografik joylashuvi, transport tarmoqlari va nisbatan barqaror ichki hudud sifatidagi ahamiyati bilan izohlanadi. Jadvallarda qayd etilgan hududiy tafovutlar esa qochoqlarni joylashtirish jarayoni markazlashgan yagona tizim asosida emas, balki viloyat va uyezdlarning real imkoniyatlaridan kelib chiqib amalga oshirilganini ko'rsatadi. Shuningdek, 70 ming nafarga yaqin qochoqning mavjudligi Turkiston o'lkasining ijtimoiy-iqtisodiy va sanitariya tizimlariga tushgan yukning keskin oshganini anglatadi. Bu holat oziq-ovqat ta'minoti, uy-joy, mehnatga joylashtirish hamda sog'liqni saqlash sohalarida davlat va jamoat institutlari oldiga murakkab vazifalar qo'ygan. Aynan shu sharoitda hukumat va xayriya tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan tashkiliy, moliyaviy va tibbiy choralar qochoqlar oqimini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etgan. Umuman olganda, jadvallar asosida aniqlangan ushbu raqamlar Turkistonda Birinchi jahon urushi yillarida yuzaga kelgan qochoqlar muammosi epizodik emas, balki keng ko'lamliligi va tizimli ijtimoiy hodisa bo'lganini hamda u mintaqaning demografik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'z MA, I-1-fond, 3-ro'yxat, 1270-yig'ma jild, 3-varaq.
2. O'z MA, I-1-fond, 3-ro'yxat, 1270-yig'ma jild, 17-varaq.
3. O'z MA, I-1-fond, 3-ro'yxat, 1270-yig'ma jild, 19-varaq.
4. O'z MA, I-1-fond, 3-ro'yxat, 1270-yig'ma jild, 20-varaq.
5. O'z MA, I-1-fond, 3-ro'yxat, 1270-yig'ma jild, 24-varaq.
6. O'z MA, I-1-fond, 3-ro'yxat, 1270-yig'ma jild, 25-varaq.
7. Белова И.Б. Вынужденные мигранты: беженцы и военнопленные Первой мировой войны в России, 1914–1925 гг. — Москва: АИРО-XXI, 2014. — С. 15.
8. Gatrell P. War, Refugeedom, Revolution: Understanding Russia's Refugee Crisis, 1914–1918 // *Cahiers du monde russe*. — 2017. — № 1–2(58). — P. 123–146. — DOI: 10.4000/monderusse.10073.
9. Gatrell P. *A Whole Empire Walking: Refugees in Russia during World War I*. — Bloomington: Indiana University Press, 2005. — P. 217.
10. Кузнецова С. Беженцы являются наиболее бесчеловечно эксплуатируемым элементом. — URL: Коммерсантъ
11. Михалев Н.А., Пьянков С.А. Беженцы Первой мировой войны в Российской империи: численность, размещение, состав // *Уральский исторический вестник*. — 2015. — № 4(49). — С. 95–105.
12. Соловьева Е.А. Судьба беженцев в годы Первой мировой войны (на материалах Симбирской губернии) // *Власть*. — 2019. — № 5. — С. 216–222.
13. Stockdale M. *Mobilizing the Russian Nation: Patriotism and Citizenship in the First World War*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2016. — P. 110.
14. Тихонова А.М. Беженцы Первой мировой войны. — URL: SVRT Library PDF